

Innovatsiyalar

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/activities/innovation>

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-307-son qaror 5-ilovasi "Iqtisodiyot tarmoqlari tashkilotlari tomonidan yangi ishlanma va texnologiyalar asosida ilmiy hajmdor va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish loyihalarini amalga oshirishning 2023—2026-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari" yuzasidan "O'zbekimiyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida 20 ta innovatsion loyiha amalga oshirilmoqda. Shuningdek, mazkur qarorning 4-ilovasida 2023—2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida amalga oshiriladigan "drayver" innovatsion 14 ta loyiha amalga oshirilmoqda.
2. "O'zbekimiyosanoat" AJning Tarmoq ilmiy-texnik kengashi yig'ilishlarida investitsiya loyihalarining loyihaoldi hujjatlarini, korxon va tashkilotlarning ilmiy-texnikaviy masalalarini hamda ratsionalizatorlik takliflari materiallarini ko'rib chiqish bo'yicha ishlar tashkil etilgan.
3. "O'zbekimiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida Toshkent davlat texnika universiteti, Yangi O'zbekiston universiteti, Toshkent kimyo-texnologiya instituti, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti, "Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti" MChJ, Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutlari bilan ilmiy-amaliy loyihalar ustida hamkorlikda ishlab kelmoqda.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3698-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida o'tkaziladigan "InnoWeek.Uz" innovatsion g'oyalar haftaligida "O'zbekimiyosanoat" AJ tarmoq korxonalarida innovatsion mahsulotlari bilan faol ishtirok etadi.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kimyo va gaz-kimyo sanoatini strategik rivojlantirishning maqsadli dasturini tasdiqlash to'g'risida" PQ-388-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Innovatsion rivojlanish agentligi bilan hamkorlikda yetakchi xorijiy investorlar va ilm-fan vakillari ishtirokida har yili IV chorakda ilmiy anjuman o'tkaziladi.
6. "O'zbekimiyosanoat" AJ tizimida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar dasturi asosida sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, ixtirochilar va innovatorlarni aniqlash, yoshlar orasida sog'lom raqobat muhitini vujudga keltirish, ularning innovatsion g'oyalarini hayotga tatbiq etish va yosh avlodni kimyo sanoatiga qiziqishini oshirish maqsadida har yili an'anaga aylangan "Kimyo sanoati yosh mutaxassislar forumi" o'tkaziladi. Forumga tarmoq korxonalarida faoliyat olib borayotgan yosh mutaxassislar va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar jalb etiladi.





